

PRAGMATIK ATAMALAR VA TUSHUNCHALARNING ILMIY ASOSI VA ZAMONAVIY TALQINI

Maxmudjonova Fariza

SamDAQU akadedmik litsey ingliz tili fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Adabiyotshunoslikda, xususan, qiyosiy planda badiiy pragmatika va unga xos maqsad va xarakter ifodalovchi vositalarning o'ziga xosliklarini o'rganmasdan turib milliy adabiy jarayonning tarixiy qonuniyatlarini va ularni muayyan ijodkorlar ijodida namoyon bo'lishini tushunish va o'rganish mushkul. Shu sababli hozirda zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy pragmatika hamda uning xossalari matnda namoyon bo'lishi masalalarini qiyosiy planda tadqiq etish, har tomonlama chuqur o'rganishni talab qiladigan muhim ilmiy masalalardan hisoblanadi.

***Kalit so'zlar:** badiiy pragmatika nazariyasi, badiiy tahlil, ichki va tashqi konotativ ma'nolar.*

Keyingi yillarda so'z darajasida ifodalangan axborot lisoniy birlikning keng kontekstda vazifa bajarishga kirishuvi nuqtai nazardan o'rganila boshlandi. Bu o'rinda lisoniy birlik ifodalaydigan kommunikativ maqsad, munosabat, harakat va ularning emotiv, volyuntativ, appelyativ, munosabat o'rnatuvchi va estetik funksiyalari qo'shimcha (konnotativ) ma'no, pragmatik ma'no sifatida ham talqin qilina boshlandi [Arnold, 1990: 8]. Gapiruvchi shaxs yoki muallifning tinglovchi yoki kitobxonning diqqat e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqtirib qo'yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg'itish, hayajonga solish, to'qlinlantirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so'zning, so'z birikmasining ekspressiv emotsional-baholovchi konnotativ ma'nosini, ya'ni pragmatik ma'nosini

tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi. Shunday qilib soʻz ifodalaydigan qoʻshimcha maʼnoni qoʻllash kommunikativ- pragmatik ehtiyojlar tufayli roʻy beradi. Leksik-semantik vositalar tahlili har doim ham konkret fikrdagi real maʼnoni, yaʼni konnotatsiyani anglash imkoniyatini beravermaydi. Tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha, pragmatik ifodalangan nutq yoki matnni oʻrganishda kontekst, fon bilimlar, muloqot presuppozitsiyasi, suhbatdoshlar orasidagi masofa va boshqa koʻplab ekstralingvistik omillar konnotativ-pragmatik maʼnoning vujudga kelishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Birdaniga ilgʻash murakkab boʻlgan, yaʼni koʻzda tutilgan qoʻshimcha maʼnoni anglash nafaqat soʻzning semantik variatsiyaga kirishuvi orqali, balki kontekst orqali ham roʻy berishi mumkin. Bu oʻrinda soʻz maʼnosiining grammatik komponentlari semantik maʼnoga nisbatan ikkilamchi oʻrinda keladi [Apresyan, 1995, 140-141]. Muallif yoki soʻzlovchi leksik maʼnoni adresatga (tinglovchi yoki kitobxon) taʼsir qilish uchun qoʻshimcha, koʻpincha nostandart (noodatiy) maʼnoda qoʻllab, koʻzda tutilgan maqsadga erishuvni nazarda tutadi. Bu jarayon soʻzning semantik maʼnosi imkoniyatlaridan pragmatik maqsadda foydalanish tufayli roʻy beradi. Bu jarayon adresatning (tinglovchi yoki kitobxon) xarakterli xususiyatlarini, fon bilimlarining bir xilligini va nutq vaziyatining oʻziga xos xususiyatlari kabi ekstralingvistik omillarni ham hisobga olishni taqozo qiladi. Tabiiyki, bunday omillar leksik birlikning muayyan bir kontekst darajasida taʼsir qiluvchi tashqi pragmatik komponentlari hisoblanadi. Ayni paytda pragmatik komponentlar qoʻshimcha (konnotativ) maʼno anglatuvchi soʻzning semantik strukturasi tarkibiga ham kirishi mumkin. Bu holat soʻzning assotsiatsiyativ belgilari mavjud boʻlganida yoki analogiya qilinganida koʻproq seziladi. Masalan, Gargantua, Don Juan singari ismlarning ekspressiv baholovchi pragmatik komponentlari (soddadil, xotinboz) fransuz adabiyotining mashhur personajlari nomi bilan bogʻliq va biz bu pretsedent ismlardan analog sifatida boshqa kishilarni nomlash uchun foydalanishimiz mumkin. Pragmatik maʼnoni (konnotatsiyani) nutq jarayonida qoʻllanilishi va qoʻshimcha, koʻpincha implitsit (noverbal) ifodalangan maʼnolarni aniqlash prinsiplarini belgilash tilshunoslikdagi kommunikativ-funksional

paradigmaning yanada rivojlanishiga olib keldi. Soʻz va lisoniy birliklar orqali ifodalanadigan pragmatik konnotativ-soʻzlovchi tomonidan nazarda tutilgan maʼnoni keng nutq va matn miqyosida tadqiq qilinishi murakkab va serqirra bu tushunchani ilgari paytlarga nisbatan yanada kengroq maʼnoda qoʻllanilishiga sabab boʻldi. Koʻpincha pragmatik maʼno, implitsit ifodalangan maʼno, qoʻshimcha maʼno chegarasidan tashqarida ham vujudga kelishi mumkin ekan. Anʼanaviy tadqiqotlarda konnotatsiya, soʻzlovchi tomonidan nazarda tutilgan, ammo aytilmagan, taʼbir joiz boʻlsa, yashirin pragmatik hamda implitsit maʼno soʻzning semantik strukturasi tarkibiga kiritilmagan boʻlsa-da, muallifning ijodiy maqsadlari tufayli vujudga keladigan, bunda kontekst ham ishtirok etadigan, ammo bu kontekst chegaralangan matnga asoslanishi tan olinadi [Akhmanova, 1972; Galperin, 1981; Arnold, 1990].

Bugungi kunda leksik birlikning semantik strukturasi-tuzilishidagida qoʻshimcha maʼno yoki pragmatik, konnotativ maʼno deb atayotganimiz konnotatsiyani vujudga keltiruvchi kontekstlar, tagmaʼno ifodalovchi alohida soʻzlar, soʻz birikmalari, frazeologik birliklar, iboralar, maqollar asosida tadqiq qilinmoqda. Shunday qilib, pragmatik tahlil asosida konnotativ maʼnoning ichki va tashqi pragmatik belgilari aniqlanadi. Konnotatsiyaning ichki belgilari soʻz mazmuni strukturasiidagi pragmatik komponentlarning mavjudligi bilan bogʻliq. Tashqi pragmatik belgilar esa, konkret kommunikativ aktdagi muloqot vaziyati, suhbatdoshlar oʻrtasidagi munosabatlarning xarakteri, ularning fon bilimlarining, yaʼni ulardagi mavjud maʼlumoti, bir-birlariga yaqinligi, muloqot presuppozitsiyasi kabi ekstralingvistik omillar orqali aniqlanadi. Shunga koʻra konnotatsiyaning turli tiplari: bir tomondan soʻz orqali ifodalanib uning semantik strukturasi kengaytiruvchi konnotatsiya va ikkinchi tomondan matn orqali ifodalanib, tagmaʼno hosil qiluvchi konnotatsiyalar farqlanadi. Matnni va nutqni pragmatik nuqtai nazardan oʻrganish muloqot jarayonidagi nutq odobi qoidalarini egallash, muloqot jarayonini madaniy tashkil qilish, suhbat jarayonida rozilik va norozilik, muloqot normalariga rioya qilish suhbatdosh shaxsining oʻziga xos xususiyatlarini va fon bilimlarini hisobga olish kabi amaliy muloqot koʻnikmalarini shakllanishiga olib

keladi. Boshqa tomondan pragmatika til vositalaridan unimli foydalanish qoida va mezonlarlarini belgilaydi. E.S.Aznaurova o'z tadqiqotida tilshunoslikda ilk marotaba kommunikativ pragmatik vaziyatning asosiy parametrlariga asoslanib so'zning lingvopragmatik tahlili prinsiplarini nazariy jihatdan asoslab berdi. Olima ular qatoriga quyidagilarni kiritadi:

- kommunikativ akt ro'y beradigan vaziyat va joy;
- muloqot mavzusi va maqsadi;
- muloqot ishtirokchilarining etik, individual xarakteristikasi;
- muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabat [Aznaurova, 1988: 38].

V.I.Zabotkina bu nazariyani yanada rivojlantirib tilning lug'at tarkibini pragmatik nuqtai nazardan o'rganishda leksik va frazeologik birliklarni jo'yali yoki o'rinli qo'llashda muloqot vaziyatini va gapiruvchi shaxsning muloqot maqsadini hisobga olish nazariyasini ishlab chiqdi. Bu yo'nalish tilning leksik tizimini o'rganishda yangicha yondashuv: funksional leksikologiyaning shakllanishiga olib keldi. [Zabotkina, 1989, 6]. Y.D.Apresyan ta'biricha lisoniy pragmatika atalmish yangicha tushuncha lisoniy birlik zamiridagi (leksema, affiks, grammema, sintaktik konstruksiya orqali ifodalanadigan gapiruvchi shaxsning atrof borliqqa, axborot mazmuniga, tinglovchiga (kitobxonga) munosabati tushuniladi [Apresyan, 1995:136]. Masalan, "fransuzcha initiateur so'zining tashabbuskor, novator, tarbiyachi ma'nolari nol pragmatik xarakteristikaga ega bo'lsa, bu so'z konnotativ ma'noda biror yomon (salbiy) ishni boshlovchisi ma'nosiga ega bo'lib, so'z ifodalaydigan pragmatik ma'no salbiy xarakteristikaga ega bo'ladi" [Ko'chiboev, 1915: 26]. Shunday qilib so'z semantikasiga qo'shimcha yangi pragmatik ma'no, ya'ni yangi ma'no ottenkasi qo'shiladi. Shunga muvofiq Y.D.Apresyan lug'atlar definitiyasiga qo'shimcha belgilar, ya'ni iboli-yumshoq (vejlivoe), qo'pol (vulgarnoe-gruboe), kinoyaviy (ironicheskoe), erkalovchi (laskatelnoe), noma'qul (neodobritelnoe), quvnoqi (rezrvitelnoe), bee'tibor (prenebrejitelnoe), hazilomuz (shutlivoe), eifeministik (evfemisticheskoe) singari pragmatik-stilistik belgilar kiritishni taklif qiladi. [Apresyan, 1995:145]. Bu orqali pragmatik ma'no ifodalovchi lisoniy birliklarning

emotsional-ekspressiv ta'sirini o'rganish borasida yangi bir pragmatik yo'nalishga asos solindi. Har qanday lisoniy birlikning nutq (matn) ichidagi pragmatik (konnotativ) potensialini (ta'sir darajasini) tadqiq qilish, pragmatik komponentlarini aniqlash og'zaki yoki yozma nutqda o'z ifodasini topgan, matnga murojaat qilishni taqozo qiladi. Til hodisalarini matn tarkibida, turli xajmdagi nutq kesimlari orqali tahlil qilish kitobxonni ijodiy intuitsiya (his qilish, sezish) orqali so'z, ibora va jumla, kontekstda ifodalangan qo'shimcha axborotlarni anglashga yordam beradi. Lisoniy birliklarning jumladan, matnda, kontekstda bunday funksiyaga kirishuvi nafaqat ularning so'zlar qurshovidagi ma'nosini ochish vositasi bo'lib, balki yangi yasama birliklarni yaratishda va ularni anglashda inson tafakkurining harakatga keltiruvchi vositalari sifatida talqin qilinadi. Har qanday konkret fikrda nutqning pragmatik (egotsentrik- shaxsning o'zligini xarakterlovchi) komponentlari mavjud deyish mumkin [Bobrova 1991]. Egotsentrik so'zlar gapiruvchi shaxs tomonidan tilni o'zlashtirganlik darajasini bildiradi va shu sababli ular pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Bunda so'zning «lug'aviy» ma'nosi ifodalanmishning mazmunini aniqlash uchun xizmat qilsa, kontekstual ma'nosi material ifodalangan belgining intensionalligini, ya'ni biror maqsadga yo'naltirilganligini, konkret predmetga aloqadorligini bildirib keladi. Binobarin, fikrning semantik-sintaktik qurilishi umumiy holda gapiruvchi shaxsning kognitiv bilimi va kommunikativ maqsadlarini o'z ichiga oluvchi pragmatik tajribasini aks ettiradi. Moddiy mazmun esa (tajriba orqali to'plangan ekvivalent tushunchalar, uning xususiyatlari va ular orasidagi aloqadorlik) avvalgi va keyingi kontekst bilan bog'liq bo'lgan fikrning leksik-grammatik belgilari orqali to'ldiriladi. Hozirgi paytda matn nutqning yozma voqelanishidagi asosiy omili, muayyan ijtimoiy tajriba mahsuli sifatida tilshunoslikning asosiy tadqiqot ob'ektiga aylangan bo'lsa-da, yakuniy nutq aktining shakllanish jarayoni etarli darajada o'rganilmagan. Masalan, lingvistik tadqiqotlarda shaxsning bilimlar zaxirasining kommunikatsiya jarayoniga ta'siri masalasi haligacha chuqur va atroflicha tadqiq qilinmagan[Makarov, 1996]. Shu nuqtai nazardan turli diskurslarda pragmatik omillarning fikrning tematik va rematik qismlari joylashuviga

ta'sirini tahlil qilish, shuningdek nutqni tashkil qilishda lisoniy vositalarni tejash masalasi ham atroflicha tadqiq qilinmagan muammolardan biridir. Bu o'rinda nutqdagi ayrim axborotlar muloqot ishtirokchilarining har biriga tanish bo'lishi mumkinligi bois, u implitsit ifodlanishi yoki umuman tushirib qoldirilishi mumkin. Aynan mana shu hodisa nutqdagi «ko'rinmas», ba'zan ilg'ab bo'lmaydigan ma'no - mazmunni vujudga kelishiga olib keladi. [Makarova, 1996]. Fikrimiz dalili uchun quyidagi misolni pragmatik tahlil qilaylik: -Bugun «Venetsiya»ga borib tushlik qilib kelsak, nima deysan? -Tushlik qilish uchungina chet elga borishga unchalik badavlat emasman. «Venetsiya» atamasi birinchi suhbatdosh uchun tanish. U shahar restoranlarning birining nomi. Ikkinchi suhbatdosh uchun bu nom faqat chet eldagi shahar nomini anglatadi holos. Birinchi suhbatdosh o'z nutqida «restoran» so'zini tejaganida edi, suhbatdosh fikrini to'g'ri tushungan bo'lardi. Bu o'rinda birinchidan, nutqda til vositalaridan tejab foydalanish hodisasini kuzatamiz, ikkinchidan suhbatdoshlarning fon bilimlaridagi o'zaro nomuvofiqlikni, suhbatdoshlar tushlik qilish uchun joy tanlayotganligi, ikkinchi suhbatdoshning bu fikrga norozi ekanligi haqidagi qo'shimcha pragmatik axborotni his qilamiz. Shunday qilib, og'zaki va yozma nutqda turlicha til vositalarini tanlab qo'llash ularning matn hosil qiluvchi va stilistik funksiyalariga bog'lik ekanligini, bu matn strukturasi, uning rivojlanishiga ta'sir qilishligini ko'ramiz. Pragmatikaning asosiy aspektlarini aniqlashda til vositalarini tanlovchi gapiruvchi (muallif) va tinglovchi (kitobxon) tushunchalari ularning ijtimoiy mavqelari (statuslari), kommunikativ aktdagi shart-sharoitlar, suhbatdoshlar nutqining bir- birlariga ta'siri birinchi planga chiqadi. Shu nuqtai nazardan pragmatik tahlilda diskurs, gapiruvchi shaxsning nutqdan ko'zda tutgan maqsadi, uning suhbatdoshiga ta'siri, ular o'rtasidagi o'zaro munosbatlar singari omillar aniqlanadi. Pragmatik ma'no (konnotatsiya) shuningdek nutq vaziyatining o'ziga xos xususiyatlari, suhbatdoshlarning o'zaro yaqinligi, ijtimoiy mavqelari, emotsional holatlari, fon bilimlari darajasi, muloqot presuppozitsiyasi, bu jarayondagi implekatura, referensiya, inferensiya singari pragmatik parametrlar orqali aniqlanadi. Shunday qilib matn pragmatikasi nutqiy akt jarayonini, unda

suhbatdoshlarning muloqot maqsadlarini ifodalanish vositalarini, bu nutqiy akt sodir bo'layotgan vaqt va makonni, muloqotga suhbatdoshlarning fon bilimlari darajalarining va ularning ijtimoiy mavqelarining ta'sirini, muloqotga suhbatdoshlarning psixologik va biologik xususiyatlarining ta'siri, muloqot jarayonidagi xulq-atvorlari va muayyan jamiyatda umum qabul qilingan muloqot odobi qoidalariga rioya qilish darajalarini o'rganadi. Muloqot jarayonida kommunikantlar o'z suhbatdoshiga u yoki bu darajada kommunikativ ta'sir qilish maqsadida u yoki bu lisoniy kodlardan foydalanganlarida, nafaqat lisoniy vositalardan, balki kerak bo'lsa ekstralingvistik, ensiklopedik omillardan, lisoniy birliklar orqali ifodalangan emotsional ta'sir vositalardan ham foydalanadilar. Tilshunoslikda kommunikantlarning muloqot jarayonida qo'llaydigan lisoniy vositalardan foydalanish darajasi ularning fon bilimlari darajasiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi va ular lingvistik, ekstralingvistik va ensiklopedik bilimlar deya ta'riflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Mirziyoev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir mavzusida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2019 yil, 4-avgust.*
2. *4. Апресян Ю.Д. Дейксис в лексике и грамматике и научная модель*
3. *мира// Семиотика и информатика. 1986, вып. 28.-с.5-33.*
4. *5. Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря*
5. *Текст.//Прагматика и проблемы интенциональности.М.:Ин-т языкознания АН СССР, 1988. - С. 7-44.*
6. *6. Арнольд, И.В. Импликация как прием построения текста и предмет*
7. *филологического изучения // Вопросы языкознания, 1982.- №4.-С. 83-91.*
8. *7. Арутюнова, Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. // Новое*
9. *в зарубежной лингвистике. М.: Прогресс, 1985. - Вып. XVI: Лингвистическая*
10. *прагматика. - С.3-42.*
11. *8. Арутюнова, Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт.-*
12. *М.: Наука, 1988. - 341 с.*
13. *Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Тошкент, 2008.- 285,б.*